
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Nazarova N.B.	The Literary Representation of Women's Accomplishments and Charm in Jane Austen's Novels	319
Karimova S.S.	Connotative meaning and pragmatic interpretation in literary texts	325
Radjabova G.G.	Corpus evidence and the limits of intuition in the study of collocation	331
Adinaev O.J.	Onomastic, lexico-semantic and linguocultural foundations for the study of celestial body names	339
Muxitdinova X.S.	Sociocultural and diachronic characteristics of personal names in the Uzbek language	349
Amanov V.B.	Universal values as an object of linguocultural research in Spanish and Uzbek	358
PEDAGOGY		**378**
Kambarova D.I.	The methodology of developing oral speech competence of future foreign language teachers in a digital educational environment	379
Allayarov T.Ya.	Developing communicative competence of public health college students using the standardized patient method	389
Silanteva E.F.	Preliminary training for ESP teachers for effective integrated teaching	396
Omonova E.B., Musoyeva A.B.	Digital revision portfolios for developing English writing skills in Uzbek secondary schools	411
Paluanova Kh.D.	The relationship between pragmalinguistic analysis and linguodidactic design in preservice English teacher education	419
Adamboyeva N.Q.	Age-related development of phonological skills in children aged 7–10 and their role in reading competence	427
Alimardonov L.A.	Theoretical foundations and conceptual model of spiritual technologies in ensuring the information security of young people	435
Pazilova N.M., Abdulhakimova R.A.	Didactic potential and limitations of generative artificial intelligence in teaching Russian	443
Kadirova N.M., Tahirova Sh.Sh.	Stages of working with texts in Russian language classes at higher education institutions	450
Pulatova F.U.	Pragmadidactic features of teaching implicature and indirect speech acts in English language education	456
Sulaymonova M.A.	AI-Assisted Feedback in EFL Writing: Implications for Writing Accuracy and Learner Autonomy	464
Khodjieva Z.M.	Theoretical and Methodological Foundations and Practical Stages of Criterion-Referenced Assessment in Foreign Language Teaching at Higher Education Institutions	489
Musayeva F.M.	The role of specialized vocabulary in developing the lexical competence of oil and gas students	498

The methodology of developing oral speech competence of future foreign language teachers in a digital educational environment

Kambarova Dildora Ibragimovna
dildorakambarova80@gmail.com
PhD in Pedagogical Sciences,
Associate professor,
Dean of the Faculty of Foreign Languages,
Fergana State University

Annotation *This article examines the theoretical and practical aspects of improving the methodology for developing the oral speech competence of future foreign language teachers within a digital educational environment. Based on an analysis of scholarly literature, the structure of communicative competence and the place of oral speech competence within it are revealed. It is argued that digital technologies video-conferencing platforms, AI-based speech-analysis programs, and interactive distance tasks increase the speech activity of pre-service teachers and enable the simulation of authentic communicative situations. The article proposes a four-stage methodological model for developing oral speech in a digital educational environment: diagnosis, design, implementation, and assessment. A comparative analysis of traditional and digital methods is also presented. The purposeful use of digital tools contributes to the development of pronunciation accuracy, speaking fluency, communicative engagement, and independent speaking practice. Regular practice in digital environments, timely feedback, and reflective self-assessment also enhance the professional and communicative preparation of future foreign language teachers. The findings are of practical value for improving foreign language teacher-training programs at higher education institutions, as well as for in-service teacher professional development courses.*

Keywords *Digital educational environment, oral speech competence, pre-service foreign language teacher, communicative competence, information and communication technologies, methodology, speech activity, distance learning*

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi

Kambarova Dildora Ibragimovna
dildorakambarova80@gmail.com
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Chet tillari fakulteti dekani,
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kommunikativ kompetentsiya tuzilishi, uning tarkibiy qismlari sifatida og‘zaki nutq kompetensiyasining o‘rni ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan. Raqamli texnologiyalar video konferensiya platformalari, sun’iy intellektga asoslangan nutq tahlili dasturlari, masofaviy interaktiv topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy faolligini oshirish, ularga real muloqot vaziyatlarini simulyatsiya qilish imkonini berishi asoslab berilgan. Maqolada raqamli ta’lim muhitida og‘zaki nutqni rivojlantirishning to‘rt bosqichli*

metodik modeli diagnostika, loyihalash, amalga oshirish va baholash taklif etiladi. Shuningdek, an'anaviy va raqamli metodlarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Raqamli vositalardan maqsadli foydalanish talabalarning talaffuz aniqligi, nutq ravonligi, kommunikativ faolligi va mustaqil nutqiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli muhitda muntazam mashq qilish, tezkor qayta aloqa olish va o'z faoliyatini refleksiv baholash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kommunikativ tayyorgarligini mustahkamlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarini takomillashtirishda, shuningdek amaliyotchi o'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida foydalanish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar *Raqamli ta'lim muhiti, og'zaki nutq kompetensiyasi, bo'lajak chet til o'qituvchisi, kommunikativ kompetentsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, metodika, nutq faoliyati, masofaviy ta'lim*

Методика развития компетенции устной речи будущих учителей иностранного языка в цифровой образовательной среде

Камбарова Дильдора Ибрагимовна
dildorakambarova80@gmail.com
Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент,
Декан факультета иностранных языков,
Ферганский государственный университет

Аннотация *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования методики развития компетенции устной речи будущих учителей иностранного языка в условиях цифровой образовательной среды. На основе анализа научной литературы раскрывается структура коммуникативной компетенции и место устноречевой компетенции в её составе. Обосновывается, что цифровые технологии платформы видеоконференцсвязи, программы анализа речи на основе искусственного интеллекта, интерактивные дистанционные задания способствуют повышению речевой активности будущих педагогов и позволяют моделировать реальные ситуации общения. В статье предлагается четырёхэтапная методическая модель развития устной речи в цифровой образовательной среде: диагностика, проектирование, реализация и оценивание. Приводится сравнительный анализ традиционных и цифровых методов обучения. Целенаправленное использование цифровых средств способствует развитию точности произношения, беглости речи, коммуникативной активности и самостоятельной речевой деятельности студентов. Регулярная практика в цифровой среде, оперативная обратная связь и рефлексивная оценка собственной деятельности также способствуют повышению профессионально-коммуникативной подготовленности будущих учителей иностранного языка. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования программ подготовки учителей иностранного языка в вузах, а также для курсов повышения квалификации практикующих педагогов.*

Ключевые слова *Цифровая образовательная среда, компетенция устной речи, будущий учитель иностранного языка, коммуникативная компетенция, информационно-коммуникационные технологии, методика, речевая деятельность, дистанционное обучение*

Kirish

Zamonaviy jamiyatning axborotlashuvi va raqamli texnologiyalarning barcha sohaga, jumladan ta'lim tizimiga faol tatbiq etilishi chet tillarni o'qitish metodikasi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bo'lajak chet til o'qituvchilarini tayyorlashda ularning og'zaki nutq kompetensiyasini yuksak darajada shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi, chunki aynan shu kompetensiya o'qituvchining kasbiy mahoratini, o'quvchilar bilan samarali muloqot qurish qobiliyatini belgilaydi. Biroq an'anaviy auditoriya sharoitida nutqiy amaliyot uchun ajratiladigan vaqt cheklangan bo'lib, bu holat talabalarning haqiqiy muloqot vaziyatlarida o'zini erkin his qilishiga to'sqinlik qiladi.

Abdunazarova (2025) ta'kidlaganidek, raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, chunki u vaqt va makon chegaralarini yengish, nutqiy mashqlarni individuallashtirish hamda o'quv jarayonini interaktiv tarzda tashkil etish imkonini yaratadi. Shu bois bo'lajak chet til o'qituvchilarining og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan foydalangan holda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi raqamli ta'lim muhitida bo'lajak chet til o'qituvchilarining og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish va amaliy metodik modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari va Adabiyotlar tahlili

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Dastlabki bosqichda kommunikativ kompetentsiya va og'zaki nutq kompetensiyasi tushunchalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tanlab olindi hamda ularning nazariy-metodologik asoslari tizimlashtirildi. Adabiyotlar tahlili ikki yo'nalishda olib borildi. Birinchi yo'nalish kompetentsiyaviy yondashuvning nazariy negizini tashkil etuvchi klassik manbalar, xususan Hymes (1972) va Canale va Swain (1980) ishlarida ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentsiya modeli o'rganildi. Ikkinchi yo'nalish raqamli texnologiyalarning nutqiy kompetentsiyani rivojlantirishdagi o'rniga bag'ishlangan amaliy-tadqiqot xarakteridagi ishlar, jumladan Pérez Cañado (2010), Garrison va Vaughan (2008), Maiier va Koval (2021), Ferreira (2023), Pérez-Torregrosa va boshqalar (2022) hamda Abdunazarova (2025) tadqiqotlari tahlil qilindi. Bu ishlarning har biri raqamli muhitning turli jihatlarini leksik va nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish, aralash ta'lim, raqamli baholash vositalari yoritgani sababli, ularning natijalari umumlashtirilib, yagona nazariy asosga keltirildi.

Kommunikativ kompetentsiya tushunchasi ilk bor Hymes (1972) tomonidan tilshunoslikka kiritilgan bo'lib, u nafaqat til qoidalarini bilish, balki ularni muayyan ijtimoiy-madaniy vaziyatda o'rinli qo'llay olish qobiliyatini ham anglatadi. Keyinchalik Canale va Swain (1980) kommunikativ kompetentsiya tarkibini grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetentsiya kabi to'rtta asosiy komponentga ajratib ko'rsatdilar. Ushbu nazariy yondashuvda og'zaki nutq kompetensiyasi barcha komponentlarni real vaqt rejimida, tezkor va bir vaqtning o'zida faollashtirishni talab qiluvchi murakkab ko'nikma sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan nazariy xulosalar asosida qiyosiy tahlil usuli qo‘llanildi: an'anaviy auditoriya sharoitidagi nutqiy amaliyot bilan raqamli ta’lim muhitidagi imkoniyatlar bir qator mezonlar (vaqt, individuallashtirish, fikr-mulohaza, muloqot vaziyatlari, o‘z-o‘zini nazorat qilish) bo‘yicha solishtirildi. Ushbu tahlil natijalari asosida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning to‘rt bosqichli metodik modelini loyihalashtirish uchun zaruriy nazariy-metodik baza shakllantirildi.

Natijalar va Muhokama

Bo‘lajak chet til o‘qituvchisi uchun og‘zaki nutq kompetensiyasi ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi: birinchidan, u o‘zi chet tilida erkin va to‘g‘ri gapira olishi, ikkinchidan, kelajakda o‘z o‘quvchilarida xuddi shu kompetensiyani shakllantira olishi lozim. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida chet tili yo‘nalishi talabalarining nutqiy amaliyotini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bunday amaliyot nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki mustaqil ta’lim va o‘quvdan tashqari faoliyat orqali ham qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Raqamli ta’lim muhiti – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida tashkil etiladigan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni makon hamda vaqt jihatidan kengaytiruvchi yaxlit pedagogik tizimdir. Garrison va Vaughan (2008) aralash ta’lim (blended learning) modelini tavsiflar ekan, an'anaviy auditoriya mashg‘ulotlari bilan onlayn faoliyatning uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning faolligini va o‘zaro hamkorlikdagi bilim olish jarayonini sezilarli darajada kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Pérez Cañado (2010) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda virtual ta’lim muhitlari va kompyuter vositasidagi muloqot (CMC) bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik kompetentsiyasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan; xuddi shunday yondashuvni og‘zaki nutq kompetensiyasiga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Maiier va Koval (2021) bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining raqamli kompetentsiyasini rivojlantirish yo‘llarini o‘rganar ekan, tizimli nazorat ro‘yxatlari (checklist) va amaliyotchi o‘qituvchilar tomonidan konsultatsiya berish natijalarni sezilarli darajada yaxshilashini isbotladilar.

Ferreira (2023) o‘z tadqiqotida video yozib olish, podkast tayyorlash, onlayn munozara platformalari kabi raqamli vositalarning nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ustunlik va kamchiliklarini tahlil qilib, ularning o‘quvchi tashabbusini oshirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Pérez-Torregrosa va boshqalar (2022) raqamli reyting jadvallari (rubric) yordamida og‘zaki taqdimot kompetensiyasini baholash bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘qituvchi bilan fikr almashish imkoniyatini kengaytirishini ko‘rsatib berdilar.

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlil asosida mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning to‘rt bosqichli metodik modeli taklif etiladi:

1. *Diagnostika bosqichi* – talabaning boshlang‘ich nutqiy darajasini raqamli test va video-baholash vositalari orqali aniqlash;
2. *Loyihalash bosqichi* – individual nutqiy topshiriqlar va raqamli resurslar (video konferensiya, podkast, chatbot) asosida shaxsiy o‘quv trayektoriyasini shakllantirish;
3. *Amalga oshirish bosqichi* – interaktiv onlayn muloqot vaziyatlari, rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali nutqiy amaliyotni tashkil etish;
4. *Baholash bosqichi* – raqamli reyting jadvallari va o‘zaro baholash (peer-assessment) vositasida erishilgan natijalarni tahlil qilish.

Ushbu model an’anaviy metodikadan farqli o‘laroq, nutqiy amaliyotni auditoriya doirasidan tashqariga olib chiqadi va talabaga istalgan vaqtda, istalgan joyda mashq qilish imkonini beradi. Quyida an'anaviy va raqamli

yondashuvlarning qiyosiy tahlili keltirilgan (1-jadval).

Mezon	An'anaviy metodika	Raqamli metodika
Nutqiy amaliyot vaqti	Auditoriya soati bilan cheklangan	Istalgan vaqtda, cheklanmagan
Individuallashtirish	Cheklangan (guruh darajasida)	Yuqori (shaxsiy trayektoriya)
Fikr-mulohaza (feedback)	Kechiktirilgan, og‘zaki	Tezkor, raqamli rubric asosida
Muloqot vaziyatlari	Sun’iy, auditoriya sharoitida	Real yaqin simulyatsiyalar
O‘z-o‘zini nazorat qilish	Cheklangan	Video yozuvlar orqali kengaytirilgan

1-jadval. *An’anaviy va raqamli metodikaning qiyosiy tahlili*

Jadvalda keltirilgan qiyosiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhiti bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, nutqiy amaliyot vaqti auditoriya soatlari bilan cheklanmaydi, bu esa talabaga muntazam va uzluksiz mashq qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, raqamli vositalar yordamida nutqiy jarayonni video yoki audio shaklda qayd etish, keyinchalik uni tahlil qilish va xatolar ustida ishlash imkoniyati kengayadi.

Pérez-Torregrosa va boshqalar (2022) tomonidan taklif etilgan raqamli reyting jadvallari asosidagi baholash tizimi, taklif etilayotgan modelning baholash bosqichini amaliy jihatdan asoslaydi: bunday tizim talaba va o‘qituvchi o‘rtasida baholash mezonlari yuzasidan doimiy muloqotni ta’minlaydi hamda fikr-mulohazani tezlashtiradi. Shu bilan birga, Abdunazarova (2025) ko‘rsatganidek, raqamli texnologiyalarni qo‘llashda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi – aks holda raqamli vositalar faqat texnik yordamchi bo‘lib qolib, pedagogik samaradorlikka erishilmaydi. Shu bois taklif etilgan to‘rt bosqichli model nafaqat texnologik vositalarni, balki o‘qituvchining metodik yo‘naltiruvchi rolini ham o‘z ichiga oladi: har bir bosqichda o‘qituvchi talabaning nutqiy faoliyatini kuzatib boradi, individual tavsiyalar beradi va raqamli resurslardan maqsadli foydalanishni ta’minlaydi.

Amaliy jihatdan, taklif etilgan to‘rt bosqichli modelni qo‘llash jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy faolligi bir necha yo‘nalishda oshishi kuzatiladi. Xususan, diagnostika bosqichida aniqlangan individual kamchiliklar loyihalash bosqichida shaxsiy topshiriqlar tizimiga aylantirilgani sababli, talaba o‘ziga xos nutqiy qiyinchiliklar ustida maqsadli ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa an’anaviy guruh mashg‘ulotlarida deyarli imkonsiz bo‘lgan individual yondashuvni ta’minlaydi va har bir talabaning o‘z sur'atida rivojlanishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, modelning amalga oshirish va baholash bosqichlari o‘zaro chambarchas bog‘liqligi natijasida uzluksiz takomillashtirish jarayoni yuzaga keladi: talaba nutqiy topshiriqni bajaradi, tezkor fikr-mulohaza oladi va shu asosda keyingi mashqlarini tuzatib boradi. Bunday aylanma tsikl nutqiy ko‘nikmalarning nafaqat miqdoriy (nutq hajmi, so‘z boyligi), balki sifat jihatdan (talaffuz, ravonlik, muloqot strategiyalari) ham izchil o‘sishini ta’minlaydi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida shuningdek raqamli vositalarning bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z nutqini tashqaridan kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishdagi o‘rni alohida

ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Video yoki audio yozuvlar orqali o‘z chiqishini qayta ko‘rib chiqish imkoniyati talabaga nafaqat til xatolarini, balki nutq tezligi, pauza va intonatsiya kabi og‘zaki nutqning nozik jihatlarini ham anglash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, talabaning refleksiv fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi – bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyatida o‘quvchilar nutqini baholay olishi uchun zarur bo‘lgan muhim kasbiy ko‘nikma hisoblanadi.

Bundan tashqari, raqamli muhitda tashkil etilgan nutqiy topshiriqlarning moslashuvchanligi talabalarga turli xil muloqot janrlarida monolog, dialog, guruh muhokamasi, ommaviy nutq mashq qilish imkonini beradi. An’anaviy auditoriya sharoitida bunday xilma-xillikni ta’minlash vaqt va tashkiliy cheklovlar tufayli qiyin kechadi, raqamli platformalar esa turli formatdagi topshiriqlarni parallel ravishda va cheklanmagan miqdorda tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Natijada talaba turli nutqiy vaziyatlarga moslasha oladigan, ko‘p qirrali kommunikativ tajribaga ega bo‘lib boradi.

Shu bilan birga, olingan natijalar raqamli metodikaning ba’zi cheklovlarini ham ko‘rsatdi: texnik vositalarga bog‘liqlik, internet aloqasining barqarorligi va talabalarning raqamli savodxonlik darajasidagi farqlar model samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli taklif etilgan model faqat texnologik yechim sifatida emas, balki o‘qituvchining uzluksiz metodik yo‘naltiruvi bilan uyg‘unlikda qo‘llanilishi zarur, aks holda raqamli vositalarning salbiy jihatlari (masalan, diqqatning bo‘linishi yoki yuzaki bajarish) ijobiy natijalarni susaytirishi mumkin.

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining asosini kommunikativ, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va raqamli-ta’limiy yondashuvlar tashkil etadi. Metodika talabaning nafaqat chet tilida grammatik jihatdan to‘g‘ri gapira olishini, balki turli kommunikativ vaziyatlarda fikrini mustaqil, ravon, mantiqiy va maqsadga muvofiq ifodalashini ta’minlashga qaratiladi. Asosiy maqsad – bo‘lajak chet til o‘qituvchilarida monologik, dialogik va interaktiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni real va kasbiy kommunikativ vaziyatlarda chet tilidan samarali foydalanishga tayyorlash hamda o‘z nutqini mustaqil tahlil qilish va takomillashtirish kompetensiyasini shakllantirish.

Belgilangan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- talabalarning boshlang‘ich og‘zaki nutq darajasini aniqlash;
- individual nutqiy kamchiliklarni aniqlash va ular asosida shaxsiy rivojlanish maqsadlarini belgilash;
- grammatik, leksik, fonetik, sotsiolingvistik va pragmatik bilimlarni og‘zaki nutqda faol qo‘llashga o‘rgatish;
- monolog, dialog, munozara, taqdimot va pedagogik muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- real hayot va kasbiy faoliyatga yaqin kommunikativ vaziyatlarni yaratish;
- raqamli texnologiyalar yordamida muntazam nutqiy amaliyotni tashkil etish;
- audio va video yozuvlar orqali talabaning refleksiv faoliyatini rivojlantirish;
- o‘zaro baholash va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini joriy etish;
- talabaning mustaqil ravishda nutqiy faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish qobiliyatini shakllantirish.

Asosiy tamoyillari

Kommunikativlik tamoyili. Nutqiy mashqlar alohida grammatik birliklarni takrorlashga emas, balki real kommunikativ maqsadga erishishga yo‘naltiriladi.

Individuallashtirish tamoyili. Har bir talabaning boshlang‘ich darajasi, kuchli va zaif tomonlari hisobga olinib, individual topshiriqlar belgilanadi.

Faollik tamoyili. Talaba o‘quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki kommunikativ faoliyatning faol subyekti sifatida ishtirok etadi.

Izchillik va bosqichma-bosqichlik tamoyili. Nutqiy ko‘nikmalar oddiy reproduktiv mashqlardan murakkab, ijodiy va kasbiy kommunikativ vazifalarga qarab rivojlantiriladi.

Refleksivlik tamoyili. Talaba o‘z nutqini audio yoki video yozuvlar yordamida tahlil qiladi, xatolarini aniqlaydi va keyingi faoliyati uchun individual maqsadlar belgilaydi.

Raqamli muhitdan maqsadli foydalanish tamoyili. Texnologiya mustaqil maqsad sifatida emas, balki kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Raqamli vositalardan foydalanish modeli

Raqamli vositalar metodik maqsadga muvofiq ravishda quyidagi funksiyalar asosida taqsimlanadi:

Raqamli vosita	Metodik vazifa
Video konferensiya	Jonli dialog va guruh muhokamasi
Audio/video yozuv	O‘z nutqini tahlil qilish
Podkast	Monologik nutqni rivojlantirish
Chatbot	Individual dialogik mashq
Onlayn forum	Yozma va og‘zaki munozaraga tayyorgarlik
Raqamli rubric	Nutqni mezonlar asosida baholash
Elektron portfolio	Shaxsiy rivojlanish dinamikasini qayd etish
Onlayn test	Diagnostika va tezkor nazorat

2-jadval.

Bunda muhim metodik talab shundan iboratki, har bir raqamli vosita aniq nutqiy maqsadga xizmat qilishi kerak.

Nutqiy portfel” metodikasi

Talabaning rivojlanishini muntazam kuzatish uchun Digital Speaking Portfolio tashkil etiladi.

Portfel tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- boshlang‘ich diagnostika videosi;
- individual rivojlanish maqsadlari;
- haftalik audio/video topshiriqlar;
- o‘qituvchi fikr-mulohazalari;
- peer-assessment natijalari;
- talabaning self-assessment varaqalari;
- qayta yozilgan va takomillashtirilgan nutq namunalari;
- yakuniy video chiqish.

Masalan, talaba birinchi haftada 2 daqiqalik taqdimot yozadi. O‘qituvchi uning ravonligi, talaffuzi va grammatik aniqligini baholaydi. Talaba xatolarini tahlil qilib, ikki haftadan so‘ng ayni mavzuda yangi video yozadi. Ikki yozuvning qiyoslanishi individual rivojlanishni ko‘rsatadi.

Refleksiv “3R” usuli

Talabaning o‘z nutqini tahlil qilishini kuchaytirish uchun 3R – Record, Review, Redo modeli taklif etiladi.

Record – yozib olish

Talaba nutqiy topshiriqni video yoki audio shaklida yozib oladi.

Review – tahlil qilish

Talaba yozuvni qayta ko‘rib, quyidagi savollarga javob beradi:

Men fikrimni aniq ifodalay oldimmi?

Qayerlarda uzoq pauza qildim?

Qaysi grammatik xatolarni qildim?

Qaysi so‘zlarni takrorladim?

Talaffuzimda qanday muammolar bor?

Suhbatdosh bilan o‘zaro aloqani saqlay oldimmi?

“Raqamli kommunikativ vaziyat” usuli

Bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kasbiy nutqini rivojlantirish maqsadida real

pedagogik vaziyatlarga yaqin topshiriqlar yaratiladi.

Vaziyat 1. O‘quvchi bilan maslahat

Talaba o‘qituvchi rolida bo‘ladi. O‘quvchi chet tilida gapirishdan qo‘rqishini bildiradi. Talaba unga maslahat berishi kerak.

Vaziyat 2. Ota-ona bilan suhbat

Talaba o‘qituvchi sifatida o‘quvchining til o‘rganishdagi muammolari haqida ota-onaga tushuntirish beradi.

Vaziyat 3. Pedagogik munozara

Mavzu:

“Should students use AI tools when learning a foreign language?”

Talabalar ikki guruhga bo‘linib, dalillar asosida munozara olib boradilar.

Vaziyat 4. Mini-dars

Talaba 5-10 daqiqalik chet tili darsining bir qismini olib boradi.

Vaziyat 5. Professional interview

Talaba chet tili o‘qituvchisi lavozimiga ishga kirish suhbatida qatnashadi.

Bunday vazifalar umumiy og‘zaki nutq bilan bir qatorda kasbiy-kommunikativ kompetensiyani ham rivojlantiradi.

Baholash metodikasi

Yakuniy baholash faqat o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan ball bilan cheklanmaydi. Uch tomonlama baholash tizimidan foydalaniladi:

Teacher assessment + Peer assessment + Self-assessment

Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

Mezon	Ulushi
Grammatik aniqlik	15%
Leksik boylik	15%
Ravonlik	20%
Talaffuz va intonatsiya	15%
Mazmuniy va mantiqiy izchillik	15%
Kommunikativ strategiyalar	10%
Interaktivlik	10%
Jami	100%

3-jadval. *Baholash quyidagi mezonlari*

Har bir mezon 1–5 ballik shkala asosida ham baholanishi mumkin.

5 ball – yuqori daraja;

4 ball – yaxshi daraja;

3 ball – qoniqarli daraja;

2 ball – past daraja;

1 ball – boshlang‘ich daraja.

Baholash natijalari raqamli portfolio va individual rivojlanish kartasiga kiritiladi.

Mashg‘ulotning metodik ishlanmasi

Mavzu: “The Role of Artificial Intelligence in Foreign Language Teaching”

Maqsad: Talabalarning muammoli mavzu bo‘yicha mustaqil fikr bildirish, dalil keltirish, suhbatdosh fikriga munosabat bildirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Davomiyligi: 80 daqiqa.

1-bosqich – Warm-up (10 daqiqa)

Talabalarga mavzu bo‘yicha qisqa video yoki savol beriladi:

“Can AI replace a foreign language teacher?”

Talabalar o‘z fikrlarini qisqa shaklda bildiradilar.

2-bosqich – Vocabulary preparation (10 daqiqa)

Talabalar mavzuga oid yangi so‘z va iboralar bilan ishlaydilar.

3-bosqich – Individual speaking (10 daqiqa)

Har bir talaba 1–2 daqiqa davomida quyidagi savolga javob beradi:

"How can AI help foreign language learners?"

Nutq video/audio shaklida yozib olinadi.

4-bosqich – Pair discussion (15 daqiqa)

Juftliklar quyidagi vaziyatni muhokama qiladilar:

One student believes AI improves language learning. The other believes excessive use of AI reduces students' independence.

Talabalar o'z pozitsiyalarini asoslaydilar.

5-bosqich – Group debate (20 daqiqa)

Guruhlar muammoli savol bo'yicha munozara olib boradilar.

Talabalar:

fikr bildiradi;

dalil keltiradi;

savol beradi;

qarshi fikr bildiradi;

fikrni aniqlashtiradi;

xulosa qiladi.

6-bosqich – Self-assessment (10 daqiqa)

Talabalar o'z chiqishlarini tahlil qiladilar.

Self-assessment checklist:

I spoke fluently.

I used appropriate vocabulary.

I gave clear arguments.

I responded to other speakers.

I used correct grammar.

I pronounced words clearly.

I asked or answered questions appropriately.

7-bosqich – Feedback (5 daqiqa)

O'qituvchi asosiy yutuq va kamchiliklarni umumlashtiradi hamda keyingi mashg'ulot uchun individual vazifalarni belgilaydi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti bo'lajak chet til o'qituvchilarining og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, undan samarali foydalanish maqsadli ishlab chiqilgan metodik model asosida amalga oshirilishi lozim. Maqolada taklif etilgan diagnostika, loyihalash, amalga oshirish va baholash bosqichlaridan iborat model an'anaviy va raqamli metodlarning ijobiy jihatlarini uyg'unlashtiradi hamda nutqiy amaliyotni individuallashtirish, tezkor fikr-mulohaza olish va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu modelning turli yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida amaliy sinovdan o'tkazilishi, shuningdek sun'iy intellektga asoslangan nutq tahlili tizimlarining o'qituvchilar tayyorlash jarayoniga tatbiq etilishi istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rilishi mumkin.

References:

1. Abdunazarova, O. T. (2025). Content of the speech development process, pedagogical factors and advantages of using digital technologies in the educational process. *Universum: Психология и образование, 1*(139).
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics, 1*(1), 1–47.
3. Ferreira, I. M. J. (2023). *Desenvolvimento da competência oral através de ambientes digitais* [Master's thesis, Universidade de Coimbra]. Estudo Geral.
4. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines*. Jossey-Bass.
5. Hymes, D. H. (1972). *On communicative competence*. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected readings. *269–293*. Penguin.

6. Maiier, N., & Koval, T. (2021). How to develop digital competence in pre-service FL teachers at university level. *Advanced Education, 8*(18), 62–71.
7. Pérez Cañado, M. L. (2010). Using virtual learning environments and computer-mediated communication to enhance the lexical competence of pre-service English teachers: A quantitative and qualitative study. *Computer Assisted Language Learning, 23*(2), 129–150.
8. Pérez-Torregrosa, A.-B., Gallego-Arrufat, M.-J., & Cebrián-de-la-Serna, M. (2022). Digital rubric-based assessment of oral presentation competence with technological resources for preservice teachers. *Estudios sobre Educación, 43,* 173–192.